

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**NARBEKOVA ZUXRA TADJIBAEVNA**

**IQTISODCHI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA KASBIY  
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI  
(nofilologik oliy ta'lim muassasalari iqtisodiyot ta'lim yo'nalishlari misolida)**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Sontenus of dissertation abstract of doctor of  
philosophy (PhD) he was a pedagogical sciences**

**Narbekova Zuxra Tadjibayevna**

Iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy malakalarini rivojlantirish texnologiyalari (nofilologik oliy ta'lim muassasalari iqtisodiyot ta'lim yo'nalishlari misolida)..... 3

**Нарбекова Зухра Таджибаевна**

Технологии развития профессиональных навыков при подготовке специалистов-экономистов (на примере экономических специальностей нефилологических высших образовательных учреждений)..... 25

**Narbekova Zuxra Tadjibaevna**

Technologies for the development of professional competencies in the training of economists (using the example of economic education in non-philological universities)..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works..... 53**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**NARBEKOVA ZUXRA TADJIBAEVNA**

**IQTISODCHI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA KASBIY  
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI  
(nofilologik oliy ta'lim muassasalari iqtisodiyot ta'lim yo'nalishlari misolida)**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xakimova Muxabbat Fayziyevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Tojiboyeva Xilolaxon Maxmutovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Qarshi davlat universiteti**

**Yetakchi tashkilot:**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_26\_”\_09\_ soat \_14:00\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (+99871) 239-01-49, faks: (+99871) 239-41-23; e-mail: [tdu@tsue.uz](mailto:tdu@tsue.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (+99871) 239-01-49, faks: (+99871) 239-41-23; e-mail: [tdu@tsue.uz](mailto:tdu@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_11\_”\_09\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_10\_”\_09\_dagi \_44\_-raqamli eestr bayonnomasi).

**G.K. Abduraxmanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, i.f.d., professor

**O.D. Djurabaev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**Sh.A. Allayorov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa fanlari (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida kechayotgan globallashtirish va raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiyot sohasi uchun yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash zaruratini keskin oshirmoqda. Bu holat, ayniqsa, nofilologik oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy yo'nalishdagi kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash, ularning kasbiy tayyorgarligiga yangi yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi. Bunday sharoitda iqtisodchi talabalar uchun chet tilini bilish, raqamli savodxonlik, tahliliy fikrlash, samarali muloqotga kirishish qobiliyatlari kabi ko'p qirrali kompetensiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalar, virtual modellashtirish va interfaol metodlar asosida ta'limni tashkil etish iqtisodiy mutaxassislarning real bozor talablari asosida shakllanishini ta'minlaydi. Shu bois, integratsiyalashgan ta'lim yondashuvi iqtisodchilarning kasbiy raqobatbardoshligini oshiruvchi omil sifatida ilmiy-amaliy jihatdan alohida dolzarblilik kasb etadi.

Dunyoda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar talabalarida bilim, ko'nikma va malakalarni kompleks shakllantirish, xorijiy til leksikasini puxta o'zlashtirish hamda uni madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida samarali qo'llash mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Xalqaro ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan ushbu yondashuvlar ayniqsa nofilologik oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak mutaxassislar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda nutqiy kompetensiyani shakllantirish, kasbiy yo'nalishdagi matnlarni tuzish va tahlil qilishda funksional yondashuvlar, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, chet tilini kasbiy kommunikatsiyaning ajralmas qismi sifatida o'rgatish metodikasi muhim ilmiy-amaliy masala sifatida qaralmoqda. Zamonaviy til ta'limi metodologiyasida nutq faoliyatining asosiy shakllari – o'qish, yozish, tinglab tushunish va og'zaki ifodalash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich o'zlashtirish hamda ularni kasbiy kontekstda qo'llash bo'yicha tizimli tadqiqotlar olib borilmoqda, bu esa hozirgi kunda ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa, mutaxassislarni tayyorlashda integratsiyalashgan va kompetensiyaviy yondashuvlarni ilgari surishga zamin yaratadi.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar zamon talablariga mos ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda ta'lim jarayoniga ilm-fan yutuqlari va innovatsion ishlanmalarni samarali integratsiyalash mexanizmlari takomillashtirildi. Xususan, ingliz, fransuz, nemis, ispan va xitoy tillarini o'qitish uchun pedagogik va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilmoqda, zarur normativ-huquqiy baza mustahkamlanmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy yo'nalishlari sifatida xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash va pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish vazifalari ilgari surilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to'g'risida"<sup>1</sup>, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari<sup>2</sup>, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"<sup>3</sup>, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>4</sup>, 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>5</sup>gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Talabalarni kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash N.M.Axmedova, F.B.Ahrorova, U.Sh.Begimqulov, R.X.Djurayev, J.G'.Yo'ldoshev, N.J.Isaqulova, Z.K.Ismoilova, R.G.Isyanov, Sh.S.Sharipov, N.A.Muslimov, M.B.Urazova, E.R.Yuzlikayevalar<sup>6</sup>; xalqaro talablar asosida chet tillarini o'qitishni hamda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirish A.Abduazizov, Z.Abdujabbarova, G.Asilova, L.T.Ahmedova, G.Bakiyeva, J.J.Jalolov, U.Jumanazarov, G.Mahkamova, S.Misirov, K.Rizkulova, X.Saynazarov, T.Sattarov, J.A.Yakubov<sup>7</sup> ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – T., 2022. – 28-yanvar.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni: lex.uz

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida" qarori: lex.uz

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori: lex.uz

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori: lex.uz

<sup>6</sup> Axmedova N.M. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: Dis. ... PhD. – T., 2020; Ahrorova F.B. Нофилологик олий ўқув юртлари талабаларига чет тилларини ўқитишда педагогик технологиялардан фойдаланиш методикаси: Пед. фанл. фалс. д-ри (PhD) ... Дис. – T., 2020; Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped. fanl. d-ri (DSc) ... Dis. – T., 2007; Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Дис. ... д-ра пед. наук. – СПб., 1995; Yo'ldoshev J.G. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: Fan va texnologiya, 2008; Isakulova N. Educational project and its essence. – T., 2023. – T. 4. – № 4; Ismailova Z.K. Talabalarining kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Dis. ... ped. fan. nomz. – T., 2000; Исянов Р.Г. Цивилизация системы образования как интеграционный фактор формирования единого социально-экономического пространства евразийского экономического союза // Современное педагогическое образование. – 2023; Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: Dis. – T., 2012; Muslimov N.A. Professional formation of future vocational education teachers. Monograph. – T.: Science, 2004. – T. 4; Urazova A. Histone glycation during ageing: identification and functional characterization of glycation sites. – T., 2022; Yuzlikayeva E.R. Pedagogical monitoring in a personality-oriented educational process in the higher education system: Monograph. – T., 2007.

<sup>7</sup> Abduazizov A.A. et al. Verzeichnet sind die Namen von Personen und von Werken unbekannter Verfasser. Aaltonen-Kiiannies, Kirsi 775 Aarsleff, Hans 2442 Abbate, Carolyn 3579; Abdujabbarova Z. Teaching English as Foreign Language by Using Different Types of Texts: the Goals // JET ADI BUANA). – 2020; Asilova G. Methods of forming professional competencies in teaching foreign languages to future customs officers; Ахмедова Л.Т. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. – T.: Фан ва технология, 2009; Бакиева Г.Х. Преодоление звуковой интерференции при обучении русскому произношению студентов-узбеков (на материале консанантизма): Автореф. дис. .... канд. пед. наук. – T., 1987; Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси: Дарслик. – T.: Ўқитувчи, 2012; Жуманазаров У.У. Таълимни ахборотлаштириш шароитида бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг фразеологик компетенциясини ривожлантириш: Пед. фанл. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... Дис. – T., 2019; Махкамова Г.Т. Формирование межкультурной компетенции студентов английского языка. – T.: Фан, 2010; Misirov S. Communicative approach in teaching English as a foreign language //

Chet tili ta'limini metodik jihatdan o'rganish N.D.Galskova, M.V.Lyaxovitskiy, Ye.I.Passov, S.I.Sharapova, R.K.Minyar-Beloruhev, K.I.Salomatov, Ye.N.Solovova<sup>8</sup>; chet til o'qitishning pedagogik psixologik tomonlari I.A.Zimnyaya, A.A.Leontev<sup>9</sup>; kasbiy malaka falsafiy kategoriya sifatida E.Dyurkgeym, P.Sorokin<sup>10</sup> asarlarida ko'rib chiqilgan; ijtimoiy hodisa sifatida I.G.Belyaeva, V.I.Bogoslovskiy, L.V.Znovenko<sup>11</sup>; kasbiy malakani shakllantirishning psixologik va pedagogik jihatlari L.A.Amirova, L.V.Goryunova, A.Yu.Lvova<sup>12</sup>; kasbiy ta'lim nazariyasi va metodologiyasi muammolari G.D.Buxarova, A.A.Derkach, V.V.Kuznesov, Ye.V.Tkachenkolar<sup>13</sup> tadqiq etishgan.

Xorijiy tadqiqotlar tajribasida T.Hutchinson, A.Waters, R.L.Oxford, N.Grapa, D.W.Johnson, P.F.Trembleu, M.Canal, M.Swain, S.Brumfit, C.Chappell, V.Melville tilni o'qitishda madaniy yondashuvlarning integratsiyasi; mutaxassislarning kasbiy kompetensiya massalari, kasbiy yo'naltirilgan muloqotni rivojlantirish masala tadqiqi M.Jasper, Ian MacKenzie, Passenheim Olaf, M.Cyert Richard, G.James, Hill Stephen J.Richard, S.Rodjers<sup>14</sup> ishlarida o'z ifodasini topgan.

---

ACADEMICIA: International multidisciplinary research Journal. – 2021; Riskulova K.J. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi sasiolingvistik kompetensiyasini shakllantirish tizimi: Ped. fanl. fals. d-ri ... Dis. – T., 2017; Саттаров Т.К. Ўқитувчилик бўйича амалий машғулотларда бўлажак чет тили муаллимнинг социolingvistik малакаларини шакллантириш (инглиз тили материалида): Дис. ... пед. фанл. д-ри. – Т., 2000; Yakubov J.A. Features of logic and language expression of the modality category: PhD thes. ... phil. – T., 2007.

<sup>8</sup> Гальскова Н.Д. Теоретические основы образовательной политики в области подготовки учащихся по иностранным языкам: система школьного образования: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 1999; Ляховицкий М.В. Методика преподавания иностранных языков: Учебное пособие для филол. спец. вузов. – М.: Высшая школа, 1981; Пассов Е.И., Кибирева Л.В., Колларова Э. Концепция коммуникативного иноязычного образования (теория и ее реализация): Методическое пособие для русистов. – СПб.: Златоуст, 2019; Шарапова С.И. Методика обучения студентов неязыкового вуза чтению профессиональных текстов с целью порождения различных форм вторичных высказываний: немецкий язык: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Я., 2010; Миньяр-Белоручев Р.К. Курс устного перевода: французский язык. – М.: Московский лицей, 1999; Саломатов К.И. Первые шаги в профессию учителя иностранного языка: Пособие для студентов. – Л.: Просвещение, 1979; Соловова Е.Н. Интегративно-рефлексивный подход к формированию методической компетенции преподавателя иностранного языка в системе непрерывного профессионального образования: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 2004.

<sup>9</sup> Зимняя И.А. Педагогическая психология: Учебник для педагогических вузов. – М.: Логос, 2002; Леонтьев А.А. Педагогическое общение. – М.: Знание, 1979.

<sup>10</sup> Dyurkgeym E. On the division of social labor. Transl. from the French by AB Hoffman. – М.: Kanon, 1996; Сорокин П.С., Фрумин И.Д. Образование как источник действия совершенствующей структуры: теоретические подходы и практические задачи // Вопросы образования. – М., 2022.

<sup>11</sup> Беляева И.Г. Обучение иностранному языку в рамках интеркультурного подхода // Диалог культур. Культура диалога: в поисках передовых социогуманитарных практик: Материалы Первой международной конференции. – М., 2016; Богословский В.И., Писарева С.А., Тряпицына А.П. Академическая мобильность реализация в Болонском процессе: Методическое пособие для студентов. – СПб.: РГПУ, 2007; Зновенко Л.В. Развитие академической мобильности студентов педагогического вуза в условиях непрерывного образования: Автореф. ... канд. пед. наук. – М., 2008.

<sup>12</sup> Амирова Л.А. Развитие профессиональной мобильности педагога в системе дополнительного образования: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Уфа, 2009; Горюнова Л. В. Мобильность как принцип модернизации высшего педагогического образования // Известия Южного федерального университета. Педагогические науки. – 2013; Львова А Ю. Социокультурные и педагогические средства непрерывного образования людей третьего возраста // Известия РГПУ. – 2011.

<sup>13</sup> Бухарова Г.Д. Общая и профессиональная педагогика. – М.: Академия, 2009; Деркач А.А. Развитие акмеологии: достижения, проблемы, перспективы // Народное образование. – М., 2020. – № 3; Кузнецов В.В. Введение в профессионально-педагогическую специальность // Общество с ограниченной ответственностью. – М.: ЮРАЙТ, 2019; Ткаченко Е.В., Глазунов А.Т. Базовое профессиональное образование // Проблемы регионализации и развития. – Ч.: ЧГУ, 2001.

<sup>14</sup> Hutchinson T., Waters A. English for specific purposes. – CUP, 1987; Oxford R.L. Teaching and researching language learning strategies: Self-regulation in context. – Routledge, 2016; Johnson D.W., Johnson R.T., Smith K. The state of cooperative learning in postsecondary and professional settings // Educational psychology review. – 2007;

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2019-2021 yillarga mo'ljallangan 02 V – “Nemis tilida kasbga yo'naltirish” innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** nofilologik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

nofilologik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

nemis tilini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarning metakognitiv tarkibiy qismlarini takomillashtirish;

nofilologik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

nofilologik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarning rivojlanganlik darajalarini samaradorligini takomillashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti sifatida** nofilologik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Guliston davlat universiteti, Farg'ona davlat universitetlarining 385 nafar talabalari respondentlar sifatida jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** nofilologik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirish texnologiyalari shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, sotsiometrik (suhbat, anketa, test, intervyu); pedagogik tashxis, tajriba-sinov, psixologik-pedagogik hodisalarning tizimli tahlili, monitoring, matematik statistik tahlil, natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

---

Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. – O.: Oxford University Press, 1980; Swain M., Lapkin S. Interaction and second language learning: Two adolescent French immersion students working together // The modern language journal. – 1998; MacKenzie I. English as a lingua franca: theorizing and teaching English. – Routledge, 2014; Jasper, M. (1990). Berufssprache Deutsch. Kommunikation im Beruf: Anforderungen, Probleme, Lösungen. Ismaning: Hueber Die Berufssprache stellt eine eigenständige Form der Sprache dar, die durch spezifische kommunikative Anforderungen geprägt ist (Jasper, 1990, S. 11); Lado, R. (1957). Linguistics Across Cultures: applied linguistics for Language Teachers. Ann Arbor: University of Michigan Press. Language learners must be taught not only grammar and vocabulary, but also how to perform appropriately in real-life communication; Passenheim, O. (2009). Communication: bookboon.com. Professional communication is more than transmitting information – it is about building relationships, solving problems and influencing outcomes. Cyert, R.M., March, J.G. (1963). A behavioral theory of the firm. Englewood cliffs: Prentice-Hall; James, G. (1983). English for Specific Purposes: a Structural and Functional Approach // Language teaching. – CUP; Rodgers, S. (2006). Developing effective communication skills in professional Contexts. Oxford University Press. Effective professional communication involves both linguistic accuracy and situational appropriateness; Hill, S.J. (2001). Professional Learning in Organizations: a reflective approach to practice. – London: Routledge.

iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy malakalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, sohaviy bilimlar va iqtisodiy jarayonlarning virtual muhitini izchillik va mantiqiylikka muvofiq modellashtirish orqali iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va prognozlashga oid kompetensiyalar takomillashtirilgan;

iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirish metodi nemis tilini o'qitish jarayonida iqtisodiy tafakkurni investitsiyaviy qarorlar qabul qilishda innovatsion texnologiyalarni metakognitiv tarkibiy yo'naltirish asosida takomillashtirilgan;

iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirish modeli ishbilarmonlik muhitini imitatsiya qiluvchi, real iqtisodiy jarayonlarning didaktik nusxasiga asoslangan o'quv sharoitlarida amaliy ko'nikmalar hamda muloqot va muzokara yuritish kompetensiyalarini shakllantirish orqali takomillashtirilgan;

iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirish metodi interfaol brainstorming va tahliliy faoliyat mikromuhitini, diagnostik, ijobiy muhit elementlarini bosqichma-bosqich shakllantirish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

nofilologik oliy ta'lim muassasalari iqtisodiyot yo'nalishi talabalari uchun "Die interaktive Methode und Aufgaben beim Leseverstehen", "Arbeit mit landeskundlichen Texte" o'quv qo'llanmalari nashr qilingan;

nofilologik oliy ta'lim muassasalari pedagoglari uchun "Deutsch+Wirtschaft" darsligi nashr etilib, ta'lim jarayoniga tatbiq qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** rasmiy manbalardan olingan yondashuvlar, usullar va nazariy ma'lumotlardan foydalanish, matematik statistika usullaridan foydalangan holda eksperimental ish natijalarining asosiligi, ishlab chiqilgan didaktik materiallar, xulosalar va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi, vakolatli organlar tomonidan olingan natijalarning tasdiqlanishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, nofilologik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirishga oid ilmiy-pedagogik qarashlarni nazariy yondashuvlar bilan boyitdi, kasbiy malakalarni shakllantirish jarayonining mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, texnologiyalari, uni tashkil etish yo'llari, shakl va metodlari hamda ta'lim jarayonini tashkil etishga oid ilmiy-metodik tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qilgan bo'lsa, ushbu jarayon bo'lajak mutaxassislarning nemis tilidagi nutq kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan uslubiy yondashuvlar va pedagogik shartlarni takomillashtirish bilan ham izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, nazariy tahlillar natijasida olingan materiallardan "Lesetexte mit Aufgaben" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilganligi, nofilologik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan modeldan talabalarni boshqa yo'nalishlarda o'qitishda ham foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi va dissertatsiya ishida ilmiy-amaliy asoslangan yondashuv va tavsiyalardan nofilologik oliy ta'lim muassasasining o'quv jarayonida bo'lajak iqtisodchining shaxs tuzilishidagi kasbiy kompetensiyalar va uning kasbiy malakasi tarkibiy qismlarini aniqlash va tavsiyalardan amaliy foydalanishda, bo'lajak iqtisodchining kasbiy

malakasini chet tili orqali shakllantirish, nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarida bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy malakalarini rivojlantirish jarayonini tashkil etish, mazmunini boyitish, sifat va samaradorligini ta'minlash maqsadida talabalar uchun nemis tili bo'yicha darsliklar, o'quv-metodik majmualar hamda ularning kasbiy malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan yo'riqnomalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha olingan natijalar asosida:

nofilologik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, sohaviy bilimlar va iqtisodiy jarayonlarni virtual muhiti izchillik, yaxshilik va mantiqiylikka muvofiq modellashtirish yangi iqtisodiy g'oyalar yaratishga, motivatsiya hamda talabalarning kasbiy faolligini rivojlantirishga oid tavsiyalar "Die interaktive Methode und Aufgaben beim Leseverstehen" o'quv qo'llanmalari mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2023-yil 26-oktabrdagi 340-son raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, muassasalarda bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil etishga erishilgan;

nofilologik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirish metodi, nemis tilini o'qitish jarayonida iqtisodiy tafakkurni investitsiyaviy qarorlar qabul qilishda innovation texnologiyalarning metakognitiv tarkibiy yo'naltirish asosida takomillashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan A-1-197-raqamli "Ingliz va nemis tillarini o'rganish uchun o'quv-uslubiy modullarni takomillashtirish va ulardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (2024-yil 20-dekabrda 02/01-01-153-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

nofilologik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirish modeli ishbilarmonlik muhitini imitatsiya qiluvchi, real iqtisodiy jarayonlarning didaktik nusxasiga asoslangan o'quv sharoitlarida amaliy ko'nikmalar, qaror qabul qilish malakasi hamda muloqot va muzokara yuritish kompetensiyalarini shakllantirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Deutsch+Wirtschaft" darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 326-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirishga pedagogik imkoniyatlar kengaytirilgan;

bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirish metodi interfaol brainstorming va tahliliy faoliyat mikromuhitini diagnostik, ijobiy muhit elementlarini bosqichma-bosqich shakllantirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Arbeit mit landeskundlichen Texte" o'quv qo'llanmalari nashr qilingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-buyrug'iga asosan). Natijada, nofilologik oliy ta'lim muassasalari

talabalarida bo‘lajak kasbiy malakalarning rivojlanganlik darajalarini tashxislovchi indikatorlarni takomillashtirish imkoni kengaytirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobativiyasi:** 2 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda tadqiqot natijalari muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya ilmiy mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ro‘yxatdagi jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, OAK e‘tirof etgan bazalarda indekslangan yuqori impakt faktorli xorijiy nashrlarda 3 ta maqola va ilmiy axborotlar e‘lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish va asosiy qism, 3 ta bob va 8 ta paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekti va predmeti aniqlangan. Shuningdek, ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy etilishi, aprobativiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi hamda ishning tuzilishi va hajmi masalalari o‘z aksini topgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy malakalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy malakalarini rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida, nofilologik oliy ta‘lim muassasalari talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirishga qo‘yilgan zamonaviy talablar, chet tilini o‘qitish bo‘lajak iqtisodchi mutaxassisning kasbiy malakasini rivojlantirish omili sifatida bayon qilingan.

Bugungi kunda ta‘limning sifat va samaradorligini oshirish, talabalarning ta‘lim markazida bo‘lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta‘minlashga qaratilgan “Chet tillarni o‘rganishni yanada ommalashtirish va til bilish darajasini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>15</sup>gi PQ-153-son qarori jamiyatda o‘zining dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, qarorda “Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish yo‘li bilan, o‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o‘qitish, shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit

---

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-maydagi PQ-153-son “Chet tillarini o‘rganishni yanada ommalashtirish va til bilimini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori: <https://lex.uz/ru/docs/6492439>

va imkoniyatlar yaratishdan iborat”, – deb ta’kidlangan. Ilmiy tadqiqot ishini olib borishda shu mavzu doirasidagi bir nechta ishlar o’rganilib chiqildi. Jumladan, N.M.Axmedova, X.Mamatqulov, V.M.Monaxov, Ye.S.Polat, N.A.Shaydenko, K.Dj.Riskulova, T.K.Sattorov va boshqa olimlar o’z ishlarini talabalarni kasbiy tayyorlash muammolariga bag’ishlashgan va o’z asarlarida kasbiy pedagogik faoliyatning kommunikativ muloqot komponentini mustahkamlash orqali talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlashgan. Mamlakatimizda filologiya va tillarni o’qitish metodikasi muammolari G.A.Asilova, L.T.Axmedova, G.X.Bakieva, J.Jalolov, G.Mahkamova, K.J.Riskulova, A.Sattarov va boshqa olimlarning ishlarida kadrlarning kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolari tadqiq qilingan.

Kasbiy muloqot tushunchasini o’rganishda ko’plab olimlar o’qitishning kommunikativ muloqot bilan bog’liq mohiyati va tabiatiga e’tibor qaratganlar (N.M.Boritko, V.G.Zinchenko, V.A.Kan-Kalik, L.D.Kachuro, M.Gulyamova, D.R.Pulatova va boshq.). Kasbiy faoliyatda kommunikativ muloqot komponentining o’ziga xos ahamiyatini O.V.Fedotova, Ye.I.Passov, N.M.Novoselov kabi tadqiqotchilarning fikricha, xorijiy til darslari, bu muloqot darslari ekanligini, darslarda talabalarning muloqot texnikasini, xususan, usuli, metodlarini o’zlashtirishi lozim. Chunki, jamiyatda munosabatlarning yangi tizimiga, ta’lim tuzilmalarini insonparvarlashtirish, didaktik jarayon ishtirokchilarining subyekt-subyektli munosabatlariga yo’naltirish tufayli kasbiy muloqot kompetensiyasi muammosi dolzarb hisoblanadi. U.U.Jumanazarovning tadqiqot ishida ta’limni raqamlashtirish muhitida bo’lajak ingliz tili o’qituvchilari frazeologik va grammatik kompetentligining tarkibiy tuzilmalari aniqlanib, rivojlantirish bosqichlari belgilangan; baholash mezonlari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan; chet tilidagi nutqning grammatik tomoni, o’qitish mazmunining lingvistik, psixologik va uslubiy komponent tarkibi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan.

Oliy ta’limda xorij tillarini o’qitishda shu vaqtgacha mavjud bo’lgan an’anaviy ta’limdan, ya’ni ta’limning markazida o’qituvchi turuvchi ta’lim berish usulidan farqli ravishda, talaba-yoshlarning mustaqil o’rganib, tahlil qilib, xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqaruvchi, ya’ni, ta’limning asosiy ishtirokchisi talaba hisoblangan jarayonga alohida e’tibor qaratilmoqda. Talabalarning qiziqishlarini inobatga olgan holda xorijiy tajribalarga tayanib, darslarni har bir darsga doir mavzularni slaydlar, videoroliklar, master-klasslar, musiqalar, ko’zni charchatmaydigan ranglar va animatsiyalar asosida olib borish yo’lga qo’yilgan. Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning mohiyati, ta’limning sifat va samaradorligini yaxshilash, talabalarning xorijiy tillarni o’zlashtirishdagi kasbiy faolligini oshirish asosida, ularda o’zlari ta’lim olayotgan xorijiy til bo’yicha mustaqil fikrlashlarini rivojlantirish, ijodiy izlanish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ma’lumki, kasb – bu maqsadli o’qitish va ish tajribasi natijasida olingan maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko’nikmalar majmuasiga ega bo’lgan shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi. Shu bilan birga, kasb insonning ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida o’ziga xos funksiyalarni bajarish qobiliyatini aks ettiradi va uning xodim sifatida sifat jihatidan asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatning barcha funksional vositalari (tashqi va ichki) bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bog‘liqdir: kasbiy faoliyatning tashqi vositalari qanchalik kam talaffuz qilinsa va ular texnik jihatdan sodda bo‘lsa, ichki vositalar tizimi shunchalik murakkab bo‘lib chiqadi, kasbga qo‘yiladigan talablar – xodimning mutaxassis, shaxs va professional sifatida ma’lumot darajasi, malakasi, intellektual va hissiy rivojlanishi shunchalik yuqori bo‘ladi. Bo‘lajak iqtisodchilar o‘rtasida kasbiy malakani shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni ko‘rib chiqish bizga iqtisodiyot sohasida iqtisodchi-mutaxassis tayyorlashning ehtimoliy modulini yaratishni boshlashga imkon beradi. Modul shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim o‘quv fanlari sikllaridan iborat ochiq, yaxlit, jadal rivojlanayotgan tizim bo‘lib, ulardan biri chet tilni o‘rgatishdir.

Til o‘qitish jarayonida iqtisodchi-mutaxassis faoliyati uchun o‘ta muhim bo‘lgan kommunikativ, intellektual, tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantiradigan faoliyat turlariga alohida e’tibor qaratish lozim. Kelajakda taklif etilayotgan tadqiqotlar turli xil faoliyat turlarining til va oliy ta’lim bilan o‘zaro ta’siri zarurligini asoslash imkonini beradi. Bo‘lajak iqtisodchi-mutaxassis modelining muhim xususiyati va uni chet tili orqali o‘qitish ko‘p qirrali jarayondir.

Nemis tili orqali kasbiy malakalarni shakllantirish jarayoni maqsadli (chet tilini mutaxassisning kasbiy tarkibiy qismiga kiritish), mazmunli (kasbiy tayyorgarlikning intellektual, kasbiy va shaxsiy elementlari) va texnologik (o‘yin texnologiyalari, chet tilini o‘qitishning faol va intensiv usullari) komponent texnologiyalaridan iborat.

Nemis tili orqali bo‘lajak iqtisodchi talabalarni kasbiy tayyorlash modelini amalga oshirish jarayonida kasbiy malakalarni shakllantirishda quyidagilarga e’tibor qaratiladi: kasbiy malakalarni shakllantirishning butun jarayonining gumanistik va shaxsiy yo‘nalishi; tilni o‘qitishning intellektual, kasbiy va shaxsiy tarkibiy qismlari bilan bir qatorda mazmunli tarkibiy qismiga kirish; kasbiy faoliyatning barcha holatlarida navigatsiya qilish qobiliyatini shakllantirish; samarali ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.

Bizning tadqiqotimizda bo‘lajak mutaxassis iqtisodchi modelini tashkil etuvchi ko‘plab muhim tarkibiy qismlar orasida kasbiy malakaga – yuqori sifatli kasbiy natijalarni beradigan vosita sifatida, birinchi navbatda, ahamiyat beriladi. Aynan shu malakalar yosh mutaxassisning butun ilmiy va uslubiy yukini harakatga keltiradi. Avvalo, biz “malaka” va “kasbiy malaka” ta’riflarining ma’nosini aniqladik.

Shunday qilib, birinchi konsepsiyaning mohiyatini ko‘rib chiqishda biz malakaning turli xil ta’riflarini aniqladik, bu bizga aniqlovchi atama bo‘yicha quyidagi ta’riflar guruhlarini aniqlashga imkon beradi: malaka – kasbiy faoliyat, alohida faoliyat, shaxs tomonidan o‘rganilgan va u tomonidan ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar majmui sifatida; malaka – muayyan faoliyat turlarini bajarishga tayyorlik va qobiliyat sifatida; malaka – bu daraja. Shuni ta’kidlash kerakki, malakaning ko‘p sonli ta’riflari amaliy tadqiqot vazifalarini hal qilishni qiyinlashtiradi, chunki ularning har biri kasbiy tayyorgarlik jarayonining maqsadi, vositalari, natijasi va tashkil etilishining noaniq tasvirlariga qaratilgan.

Tizimli yondashuv doirasida kasbiy malakani shakllantirish jarayoni o‘ziga xos tizimdir. Yaratilish maqsadlari va uning mavjudligi tamoyillari bilan shartlangan ushbu tizim quyidagi funksiyalarni bajaradi: integratsiya, chunki u o‘qituvchi (lar) va talabalarning didaktik o‘zaro aloqasida aks ettirilgan vazifalar, vositalar, kasbiy

kompetensiyani shakllantirish usullarining birligi va maqsadga muvofiqligi bilan belgilanadigan tizim subyektlarining pedagogik, tarbiyaviy o‘zaro ta‘sirini birlashtiradi va muvofiqlashtiradi; rivojlanuvchi, chunki, u tizimning rivojlanish dinamikasini va tizim subyektlarini rivojlantirish omili sifatida optimallashtirishni ta‘minlaydi: oliy o‘quv yurtlari talabalari va o‘qituvchilari; o‘z-o‘zini ishlab chiqaruvchi, chunki kasbiy kompetensiyani shakllantirish uchun samarali texnologiyalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va ulardan foydalanish jarayonida tizimni yanada rivojlantirish uchun sharoitlar yaratiladi.

Bizning tadqiqotimizda iqtisodchi – mutaxassis o‘z ish funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun zarur bo‘lgan quyidagi kasbiy malakalarga e‘tibor qaratiladi: nutq aloqasi; chet tilining leksik va maxsus terminologiyasini bilish va kelajakda uni o‘rganishni davom ettirish; chet tili sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshirish; gnostik malakalar va ularning mobil holati; umumiy malakalar.

Kasbiy malakani shakllantirish tizimini joriy etish vositasi chet tili (nemis tili) hisoblanadi. Bugungi o‘zgarishlar sharoitida chet tillarini yaxshi biladigan mutaxassislarning “narxi” ularni bilmaydigan mutaxassislarning “narxidan” ancha yuqori. Tilni yaxshi o‘qitish raqobatbardosh mutaxassislarning dunyoqarashini va kasbiy malakasini kengaytiradi, xorijiy firmalar va davlat idoralari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish chet tilini amaliy bilishga qaratilgan.

Nofiliologik yo‘nalishdagi ta‘lim muassasasida o‘qishning amaliy maqsadlari mutaxassisga chet eldagi iqtisodiy jarayonlarning rivojlanish darajasi bilan bevosita tanishish imkoniyatini berish, shuningdek, chet tili orqali iqtisodchining kasbiy malakasini shakllantirish uchun sharoit yaratishdan iborat. Oliy ta‘limda chet tilini o‘qitish aniq amaliy yo‘nalish va xolislik bilan ajralib turadi.

Chet tilini o‘qitishda tamoyillarni amaliy o‘quv maqsadlariga erishish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz: mutaxassisning lingvistik va iqtisodiy tayyorgarligini birlashtirish prinsipi – ixtisoslashtirilgan fanlar bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish jarayonida “Chet tili” fanining rolini oshirishni nazarda tutadi.

Bo‘lajak iqtisodchining intellektual, ijodiy shaxsini rivojlantirish mutaxassislik bo‘yicha chet tilidagi ma‘lumot manbalarini tahliliy qayta ishlash, ulardagi tegishli bilim sohalari o‘rtasida mantiqiy aloqalarni umumlashtirish va topish, sababiy munosabatlarni o‘rnatish va olingan bilimlarni qo‘llash orqali kasbiy bilimlarni kengaytirishdan iborat; chet tilini o‘rganish mazmuni, shakllari va texnologiyalarini kasbiy yo‘naltirish prinsipi. So‘nggi paytlarda universitetda chet tillarini o‘qitishni kasbiy yo‘naltirish prinsipi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Bizning kuzatishlarimiz, talabaning kasbiy malakasini shakllantirishda namoyon bo‘ladigan ta‘limning yakuniy maqsadi masalasi – oliy ta‘limda yangi shakllarni izlash, bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali o‘quv materiallari va chet tillarini o‘qitish dasturlarining mohiyatini belgilashda, bo‘lajak mutaxassisning shakllangan kompetensiyalarining kombinatsiyasi hamda va o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Talabaning kasbiy malakasini shakllantirishda mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda asosiy kompetensiyalarni shakllantirish, shu jumladan, qaror qabul qilish uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish qobiliyati, boshqa madaniyat, til, din vakillari bilan yashashga tayyorlik, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, uning butun

hayotini o'rganish qobiliyati va istagi va nihoyat, shaxsni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning zaruriy sharti sifatida bir nechta tillarni bilish ham talab etiladi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy malakalarini rivojlantirish shart-sharoitlari va modeli”** deb nomlangan ikkinchi bobida chet tilini o'qitishning zamonaviy vositalari, ularning kasbiy malakali iqtisodchilarni tayyorlash jarayonidagi o'rni, chet tili yordamida bo'lajak iqtisodchining kasbiy malakasini rivojlantirishning pedagogik mohiyati, chet tili orqali bo'lajak iqtisodchining kasbiy malakasini rivojlantirish jarayonining modeli kabilari bayon qilingan.

Pedagogik adabiyotlarda bir necha bor ta'kidlanganidek, oliy ta'lim oldida turgan asosiy vazifalardan biri mutaxassislarni tayyorlashning umumiy darajasini oshirishdir. Shu bilan birga, mashg'ulotlar maqsadli va mutaxassislarning ma'lum bir auditoriyasiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, bu, asosan, o'quv vositalarini to'g'ri tanlash bilan belgilanadi. Bunday tanlov o'quv jarayonining butun yo'nalishini belgilaydi. Birinchidan, o'qitish tilining diapazoni va murakkabligi tinglovchilarning ehtiyojlariga, bilim darajasiga, shuningdek, qobiliyatlariga mos kelishi kerak. Ikkinchidan, o'quv vositalarini tanlash asosan o'rganish metodikasi va shaklini belgilaydi. Uchinchidan, o'quv materiallarining tarkibiy qismi o'quv jarayonining motivatsion komponentini aks ettiruvchi shaxsning ehtiyojlarini qondirish nuqtai nazaridan muhim element hisoblanadi.

Tadqiqot yo'nalishiga maksimal darajada mos keladigan o'quv qo'llanmani ishlab chiqish jarayonida, ya'ni “Chet tili” fani orqali kasbiy malaka asoslarini shakllantirish jarayonida biz ta'lim sohasida chet tillarini o'qitish vositalarining asosiy turlarini batafsil ko'rib chiqishimiz zarur bo'ladi. Birinchi toifaga iqtisodiy mazmundagi o'quv materiallarini tanlash asosida chet tilini leksik va grammatik tizim sifatida o'qitishga qaratilgan qo'llanmalar kiradi. Jumladan: o'quv-uslubiy majmua (O'UM) deb nomlangan qo'llanmadan tashqari, ish daftarchasi, audio kurs va ba'zan video kursni o'z ichiga olgan ta'lim to'plami. Bunday qo'llanmalar materialni taqdim etishning ma'lum bir usuliga asoslangan: strukturaviy, funksional va vaziyatli. Qoida tariqasida, qo'llanmaning yo'nalishini uning mazmuni bilan aniqlash mumkin. Va bu turdagi barcha qo'llanmalar o'xshash maqsadlarni ko'zlagan bo'lsa-da, u yoki bu usuldan foydalanish o'ziga xos e'tiborni qaratadi. Qo'llanmalarni yaratuvchilar o'quv jarayonining har bir bosqichi uchun material berishni maqsad qilib qo'yadilar, bu esa, o'qituvchiga faqat qo'llanmada keltirilgan ma'lumotlar bilan shug'ullanishga imkon beradi.

Qo'shimcha materiallar, shuningdek, darslik yoki o'quv to'plamidir, ammo avvalgi qo'llanmalar guruhidan farqli o'laroq, ular o'rganishning barcha jihatlarini qamrab olishni maqsad qilmaydi. Ba'zi qo'llanmalar uchrashuvlar va muloqot kabi inson faoliyatining ma'lum bir sohasiga qaratilgan. O'qituvchi ushbu qo'llanmalardan chet tili darslarida qo'shimcha materiallar sifatida ta'limning ayrim lingvistik jihatlarini birlashtirish uchun foydalanadi, deb taxmin qilinadi, bu bizning tadqiqotimiz maqsadiga erishish omillaridan biri sifatida kommunikativ kompetensiyani oshirishning zaruriy shartidir.

Kasbiy yo'naltirilgan qo'llanmalar yuqori ixtisoslashtirilgan o'quv materiallari, masalan, bank, import-eksport operatsiyalari, buxgalteriya hisobi va boshqalar

asosida chet tilini o'qitishga qaratilgan. Bunday qo'llanmalarda chet tili ko'nikmalarini rivojlantirishga emas, balki predmet mavzusi bo'yicha bilim olishga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, ular o'quv mavzusi doirasida og'zaki va yozma nutqni o'rgatish uchun bir qator uslubiy vazifalarni o'z ichiga oladi.

Ma'lumotnoma adabiyoti ham zarur o'quv vositalarining ajralmas qismidir. U birinchi navbatda talabani lug'atini boyitishga qaratilgan, lekin ko'pincha tarkibiy yoki funksional ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Lug'atlar va ma'lumotnomalar bilan ishlash ko'nikmalari talabalarning mustaqil ishlarining samaradorligini aniqlaydi.

Mustaqil ish uchun qo'llanmalar talabalarning tili va kasbiy malakalarini shakllantirishning zarur sharti bo'lib, mutaxassislarining tobora jiddiy e'tiborini tortmoqda. Bir qator qo'llanmalar ushbu turdagi ta'lim faoliyatini tashkil etish uchun maxsus ishlab chiqilgan. Umuman olganda, xuddi shu maqsadda batafsil tushuntirishlar va kalitlar bilan birga mashqlar ko'rinishidagi vazifalarni o'z ichiga olgan har qanday qo'llanmadan foydalanish mumkin. Nofiliologik yo'nalishdagi ta'lim muassasasi doirasida chet tilini o'qitishning haqiqiy vositalarini tahlil qilishda kelajakdagi iqtisodchining chet tili yordamida kasbiy malakasini shakllantirish jarayonida bunday manbalardan foydalanishning bir necha sabablarini aytib o'tish kerak: autentik matnlar iqtisodiyotga oid chet tili ta'limida muhim didaktik resurs bo'lib, o'quv materiallarida yetishmayotgan lingvistik va stilistik jihatlarni to'ldiradi. Ular o'ziga xos terminologiya, professional jargon va amaliy nutq uslubini o'z ichiga olgan holda, xususiyl tadbirkorlik, buxgalteriya, marketing kabi sohalarning real til muhitini namoyish etadi. Bunday materiallar, shuningdek, haqiqiy hodisa va vaziyatlarga asoslangan bo'lib, nafaqat til, balki mazmuniy jihatdan ham talabalarda qiziqish uyg'otadi. Autentik manbalarning yuqori aniqligi va ishonchligi o'rganilayotgan sohaga oid bilimlarni chuqurlashtirish bilan birga, kasbiy kontekstdagi tafakkur va kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Chet tillarni o'qitish jarayonida hal qiluvchi omillardan biri sifatida kommunikativ kompetensiya tizimi haqida gapirganda, uning "Chet tili" fani orqali nofiliologik yo'nalishdagi ta'lim muassasasida mutaxassisni shakllantirish uchun ahamiyatini ta'kidlamaslik mumkin emas. Talabani kommunikativ kompetensiyasi tarkibiga lingvistik, predmetli, paralingvistik, lingvoijtimoiy-madaniy va rasmiy-mantiqiy kompetensiya kiradi. Ro'yxatda keltirilgan komponentlarning har biri o'z funksiyasini bajaradi, bu uning tizimdagi o'rnini belgilaydi.

Kasbiy malakani shakllantirish zamonaviy jamiyat tomonidan iqtisodchining shaxsiy xususiyatlariga qo'yiladigan eng muhim talablardan biridir. Shu munosabat bilan, bu jarayon tashqi bo'lib, maqsad iqtisodchining kasbiy tayyorgarligi tizimi va uning shaxsiyati bilan bog'liq. Tashqi maqsad talabalarning kasbni egallashdagi ehtiyojlari va motivlari bilan o'zaro aloqada bo'lib, ichki (tashabbuskor) maqsadga aylanadi. Ya'ni bo'lajak iqtisodchining kasbiy malakasini shakllantirish, bir tomondan, jamiyat talabi vositachiligidagi tashqi maqsad bo'lsa, ikkinchi tomondan, kelajakdagi iqtisodchi tomonidan kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonish motivlari va niyatlari orqali amalga oshiriladigan ichki maqsaddir.

Nemis tilini o'rganishda muammoli va kommunikativ vazifalar, izlanish va analitik xarakterdagi vazifalar bo'lajak iqtisodchiga "Menejment", "Marketing", "Buxgalteriya hisobi" kabi fanlarni o'rganishda zarur bo'lgan tahlil, sintez, maqsadni

